

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№11

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 251 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	34
Safarov Sanjar Ravshan o'g'li	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	38
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
HUDUDIIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELII	43
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	50
A.A. Ismailov	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI	56
Mansurov Mansur Alisherovich	
ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI.....	61
Aliqulov Aziz Haydarjonovich	
XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	66
Yormamatov Qodirjon Juraqulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	71
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJ TAJIRIBALARI	78
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJIRIBASI	84
Aripov Abdulaziz Sakijonovich	
YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	89
Bobokulova Muhabbat Mahammadiyeva	
ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI	93
To'liqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	98
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
SOLIQ SIYOSATINI RAQAMLI BOSHQARISH ORQALI BUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISH STRATEGIYASI.....	103
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	108
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi	
FARMASEVTIKA SANOATIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH	113
Yaqubov Timurbek G'anievovich	
SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA AUTENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI	123
Ozoda Sabirova Shermamatovna	
YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI	129
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
CHET EL MEHMONXONA TARMOQLARINING BRENDING STRATEGIYALARINI O'RGANISH	133
Ergashev Oybek Mamarsul o'g'li	



MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	144
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
TRANSPORT TIZIMI SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION SALOHİYATINI BAHOLASH YO'NALISHLARI	152
Ismailov Akmal Maxsudovich, Abilqosimova Shaxlo Sodiq qizi	
MEHMONXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	158
Abduxamidov Sarvar Adxamovich, Normurodov Tal'at Normurod o'g'li	
KORXONALARDA HR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	163
Aminova Shaxnoza Aziz qizi	
JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAFSIZLIK RO'LI	168
Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li	
ТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ КАРАКАЛПАКСТАНА И СУЩЕСТВУЮЩАЯ ИНФРАСТРУКТУРА	174
Хошимова Камилла Навфал қизи	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARI: REKREATIONS TURIZM SOHASIDA QO'LLASH TAJRIBASI VA ISTIQBOLLARI	184
Najmitdinov G'ayratbek Sharifovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIRTUAL TA'LIM PLATFORMALARI: TEXNIK VA PEDAGOGIK TALABLAR, TIZIMLI TAHLIL VA IQTISODIY JIHATLAR	189
Turayeva Adiba Ikramovna	
ICHKI AUDIT TIZIMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	193
Nuridinova Barchinoy Xusniddin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTIDA SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	199
Xaitbaev Jasurbek Otaxanovich	
MINTAQANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	204
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	210
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
ISLOMIY MOLIYALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING DOLZARBLIGI	217
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MASALALARI	222
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	225
Abdukhalikova Komila Abdukhalikovna	
BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH	229
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI: TAHLIL VA TAKLIFLAR	233
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	
WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS	238
Abdullaev Erkinjon Azamovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA YASHIL MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	245
Xalikov S. X.	



YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA YASHIL MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI

Xalikov S. X.

TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. “Yashil” moliyalashtirish orqali mamlakatda “yashil” iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga qaratilgan yo‘nalishlar global tendensiyaning ajralmas qismiga aylanmoqda. Xalqaro moliya tizimi global moliya bozorida “yashil” sektorning faol o‘sishi va mas’uliyatli investitsiyalar yo‘nalishida rivojlanmoqda. Investitsion paradigma o‘zgarib bormoqda: endilikda nafaqat ma’lum iqtisodiy natijaga erishish, balki ijobiy ijtimoiy va atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatish salohiyatiga ega transformativ investitsiyalarga tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi — “yashil” moliyani rivojlantirishning umumiy istiqbollari va yo‘nalishlari, shuningdek, uning nazariy jihatlari to‘laqonli aniqlashdan iborat. Mazkur maqsadga tizimli tahlil, induksiya, grafik metodlar hamda mavjud ilmiy adabiyotlarni o‘rganish orqali erishildi. Tadqiqot davomida “yashil” moliya tushunchasining nazariy asoslari o‘rganildi, “yashil” moliya vositalari va institutlarining mazmuni, ularning kuchli hamda zaif tomonlari aniqlab chiqildi. Yashil moliyaviy vositalar nafaqat iqtisodiy foyda olish, balki atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik va iqlim muammolarini hal etish uchun ham mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, yashil moliya, past uglerodli iqtisodiyot, ekologik mas’uliyatli sarmoya, yashil obligatsiyalar, moliyaviy tizimni yashillashtirish, yashil texnologiyalar.

Abstract. The directions aimed at the sustainable development of the "green" economy in the country through "green" financing are becoming an integral part of the global trend. The international financial system is developing towards the active growth of the "green" sector and responsible investments in global market finance. The investment paradigm itself is changing, more and more attention is being paid to transformative investments that have the potential not only to achieve a certain economic result, but also to have a positive social and environmental impact. The purpose of this article is to fully identify the general prospects and directions of the development of "green" finance and its theoretical aspects. This goal was achieved using systematic analysis methods, induction, graphical methods, as well as the study of systematic literature. The theoretical foundations of the concept of "green" finance are studied. The content of "green" financial instruments and institutions, their strengths and weaknesses are identified. Green financial instruments are intended not only to obtain economic benefits from their use, but also to protect the environment, solve ecological and climate problems.

Key words: green economy, green finance, low carbon economy, environmentally responsible investment, green green bonds, green economy, greening the financial system, green technologies.

Аннотация. Через «зелёное» финансирование направления, направленные на устойчивое развитие «зелёной» экономики в стране, становятся неотъемлемой частью глобальной тенденции. Международная финансовая система развивается в русле активного роста «зелёного» сектора на мировом финансовом рынке и ответственного инвестирования. Инвестиционная парадигма меняется: сегодня внимание уделяется не только достижению определённого экономического результата, но и трансформационным инвестициям, способным оказывать положительное социальное и экологическое воздействие. Цель данной статьи — всестороннее определение теоретических аспектов и общих перспектив развития «зелёного» финансирования. Для достижения цели использовались системный анализ, индукция, графические методы и изучение существующей научной литературы. В ходе исследования были рассмотрены теоретические основы понятия «зелёное» финансирование, определено содержание его инструментов и институтов, а также выявлены их сильные и слабые стороны. Зелёные финансовые инструменты направлены не только на получение экономической выгоды, но и на охрану окружающей среды, решение экологических и климатических проблем.

Ключевые слова: зелёная экономика, зелёное финансирование, низкоуглеродная экономика, экологически ответственное инвестирование, зелёные облигации, озеленение финансовой системы, зелёные технологии.



KIRISH

Jahon okeanlarida joylashgan yoki ular tomonidan quvvatlanadigan qayta tiklanadigan energiya tizimlari kelgusi o'n yilliklarda yashil energiyaga o'tishga katta hissa qo'shishi aytilmoqda. Dengizdagi shamol energetikasi va uning qayta tiklanadigan energetika sektori ulushi 31 foizni tashkil etib, global qo'shilgan qiymat 2000-yildagi 38 million AQSH dollaridan 2020-yilda 5 milliard AQSH dollariga oshgan. Shu bilan birga, global offshor shamol bozori 2024-yilda 39,6 milliard AQSH dollaridan ortiq baholangan bo'lib, 2031-yilga borib 146 milliard AQSH dollaridan oshib ketishi prognoz qilinmoqda [1].

Butun dunyo mamlakatlari 2050-yilga kelib yiliga 1,5 milliard uyni quvvat bilan ta'minlaydigan offshor shamol energetika tizimlarini joriy etish majburiyatini olmoqda [2]. Shu sababli jahon iqtisodiyotidagi energetika inqirozi, geosiyosiy beqarorlik, atrof-muhitning buzilishi va tabiiy resurslarning muntazam kamayib borishi so'nggi yillarda global iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa o'z navbatida yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish orqali mamlakatlar iqtisodiyoti samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi.

O'zbekistonda islohotlarning yangi bosqichida "iqtisodiyot tarmoqlarida 'yashil' texnologiyalar, xususan, resurs tejovchi, chiqindisiz ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash imkonini beruvchi texnologiyalarni hamda xavfsiz kimyoviy moddalarni qo'llashga o'tish, shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish" [3], shuningdek "yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish, iqtisodiyotni iqlim o'zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish" [4] masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Biroq yashil iqtisodiyotni shakllantirish yo'lida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar so'nggi yillarda ijobiy natijalar bergan bo'lsa-da, mavjud yashil investitsiya loyihalarining iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga samarali tatbiq etilishi, moliyalashtirishdagi muammolar tufayli iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalasi hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu bois iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga yashil investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi yashil investitsiya manbalarini shakllantirish hamda iqtisodiyot samaradorligini oshirishda yashil texnologiyalarning imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish vazifalari bugungi kunda eng muhim masalalardan biriga aylangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARH

Bu yo'nalishdagi dastlabki ilmiy izlanishlar T. Maltus va D. Rikardoning ishlarida o'z aksini topgan. "Yashil" iqtisodiyotni shakllantirish g'oyasi paydo bo'lishidan avvalgi tadqiqotlar asosan cheklangan va qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslardan foydalanish, atrof-muhitning ifloslanishi hamda tabiiy biologik jarayonlarning buzilishi bilan bog'liq muammolarga e'tibor qaratgan. Atrof-muhit ifloslanishining oldini olish maqsadida 1980–2000-yillarda "yashil iqtisodiyot" va "yashil moliyalashtirish" atamalari ilmiy muomalaga kiritildi.

R. Solou va V. Leontyev ilmiy ishlarida barqaror rivojlanish hamda iqtisodiy o'sish g'oyalari ilgari surilib, matematik va iqtisodiy modellashtirish usullari keng qo'llanilgan [5]. Xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan "yashil moliyalashtirish" tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan bo'lsa-da, afsuski, mahalliy olimlarning bu boradagi izlanishlari hanuz kam.

Ilmiy adabiyotlarda birinchi bo'lib Richard Sandor 1992-yilda Kolumbiya universitetida dars berish jarayonida "yashil moliya" atamasini qo'llagan va unga mualliflik ta'rifini bergan. R. Sandorning fikricha, "yashil moliya" — bu iqlim o'zgarishlariga to'sqinlik qiluvchi loyihalarni moliyalashtirishga ustuvorlik berish orqali atrof-muhitga issiqxona gazlari chiqarilishini kamaytirib, barqaror va ekologik toza iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy mexanizmdir [6].

S. Kosla va hamkorlari ta'kidlashicha, "yashil moliyalashtirish" manbalari barqaror rivojlanish, ekologik mahsulotlar ishlab chiqarish, sanoat ifloslanishiga qarshi kurashish, oqava suvlarni tozalash, biologik xilma-xillikni muhofaza qilish hamda iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish yo'nalishlariga qaratilgan loyiha va tashabbuslarga investitsiya sifatida yo'naltiriladi [7]. U. Volz boshchiligidagi ilmiy jamoaning fikriga ko'ra, "yashil moliyalashtirish" atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan va ekologik barqarorlikni oshirishga xizmat qiladigan barcha investitsiyalash hamda kreditlash shakllarini o'z ichiga oladi [8].

M. Gxoulning ilmiy qarashlariga ko'ra, "yashil moliya" — bu moliya sanoati, atrof-muhit va iqtisodiy o'sishni o'zaro bog'lovchi muhim bo'g'indir [9]. N. Lindenberg esa bu tushunchaga quyidagicha ta'rif beradi: "Yashil moliyalashtirish — bu yashil investitsiyalar, ular bilan bog'liq davlat siyosati va moliya tizimi bo'g'inlarining yig'indisidir" [10].

Mahalliy iqtisodchi olimlar A. Vahabov va Sh. Xajibakiyevlarning fikricha, "yashil moliyalashtirish" — bu atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillarni hisobga olgan holda ekologik barqarorlikni ta'minlashni nazarda tutuvchi investitsiyalash va kreditlashning barcha shakllarini qamrab oluvchi tizimdir [11].



Mahalliy tadqiqotchilardan S. Po'latova "yashil moliya"ni ekologik manfaatlar va keng ma'noda ekologik barqarorlikni rivojlantirishga hissa qo'shuvchi sarmoya deb ta'riflaydi. Unga ko'ra, "yashil moliya" — bu banklar, mikrokredit tashkilotlari, sug'urta kompaniyalari va investitsiya fondlaridan davlat, xususiy hamda notijorat sektorlariga yo'naltiriladigan moliyaviy oqimlar orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan mexanizmdir [12].

Xitoylik iqtisodchi olimlar Chi-Chuan Li va Chiyen-Chiang Li esa o'z izlanishlariga asoslanib, "yashil moliya"ning yagona, umumqabul qilingan ta'rifi mavjud emasligini ta'kidlashadi [13].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar rasmiy statistika bazalari, xalqaro moliyaviy institutlar hisobotlari hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida yig'ildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy, tahliliy va korrelyasion usullar yordamida qayta ishlanib, yashil moliyalashtirishning iqtisodiy samaradorligi hamda yashil iqtisodiyotga ta'siri baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni moliyaviy mablag'larsiz amalga oshirish mumkin emasligi sababli "yashil moliyalashtirish" tizimini yaratish zarurati paydo bo'ldi. Shu sababli MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan K. G. Bunkevich va T. A. Gorbacheva o'z ilmiy tadqiqotlarida "yashil moliya" va "yashil investitsiyalash" tushunchalarini ilgari surdilar. Ular "yashil moliyaviy vositalar"dan foydalanish nafaqat iqtisodiy foyda olish, balki atrof-muhit va iqlim muammolarini hal etishga qaratilgan degan g'oyani ilgari suradilar [14].

Xorijiy iqtisodchi olimlardan D. Zhang, M. Mohsin, A. K. Rasheed va Y. Changlarning tadqiqotlarida yashil iqtisodiy samaradorlik, Durbin modeli, yashil iqtisodiyotda toza energiyaning roli va samaradorligi, shuningdek, yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlari amaliy tahlil qilinadi [15]. Shuningdek, mamlakatimiz iqtisodchi olimlari Z. Nurov va M. X. Rajabovalar tomonidan "yashil iqtisodiyot"ning energetika sohasiga kiritilgan investitsiyalarning jahon iqtisodiyotidagi hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari o'rganilgan [16]. Yana bir guruh mahalliy iqtisodchi olimlarimiz "yashil iqtisodiyot"ga o'tishning xorijiy tajribalari hamda sanoatni rivojlantirishda iqtisodiy va ekologik muammolarning ayrim jihatlarni tadqiq etganlar.

Mahalliy iqtisodchi olim A. A. Isadjanovning fikriga ko'ra, "yashil o'sish" — bu iqtisodiy o'sish va rivojlanishni rag'batlantirishni anglatadi, bunda tabiiy aktivlar saqlanib qoladi, resurslar va ekotizim xizmatlari uzluksiz taqdim etiladi. Bizning farovonligimiz aynan ularga bog'liq. Shu sababli yashil o'sish barqaror taraqqiyotni ta'minlaydigan, yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga keltiradigan investitsiyalar va innovatsiyalarni rag'batlantirishi hamda ulardan keng foydalanishni nazarda tutadi [17].


Yana bir mahalliy iqtisodchi olim N. N. Oblomurodov "yashil moliyalashtirish"da xalqaro uglerod bozorlarining o'rni va ahamiyatiga e'tibor qaratadi. Unga ko'ra, xalqaro uglerod bozorlari iqtisodiy jihatdan samarali tarzda global issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Hozirda dunyo bo'yicha uglerod emissiyasi savdosi tizimlari soni ortib bormoqda. Yevropa Ittifoqi uglerod savdosi tizimidan tashqari Kanada, Xitoy, Yaponiya, Yangi Zelandiya, Janubiy Koreya, Shveysariya va AQSHda milliy yoki mintaqaviy savdo tizimlari yo'lga qo'yilgan va faoliyat yuritmoqda [18].

Bu borada Jahon banki bilan hamkorlikda O'zbekistonning xalqaro uglerod bozorlariga chiqish loyihasi ham diqqatga sazovor. Jahon bankining innovatsion loyihasi doirasida O'zbekiston issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va xalqaro uglerod bozorlariga chiqishga harakat qilmoqda. Loyiha doirasida taqdim etilgan 46 million 250 ming AQSH dollari miqdoridagi grant energiya subsidiyalari islohoti doirasidagi chora-tadbirlarni rag'batlantirishga yo'naltiriladi. Xususan, loyiha O'zbekistonga "uglerod kreditlari"ni yig'ish va ularni xalqaro uglerod bozorlarida sotish imkonini beradi. Ushbu loyiha O'zbekiston va Markaziy Osiyoda Parij kelishuvi doirasidagi birinchi xalqaro tashabbus bo'lib, mamlakatga uglerod bozorlariga kirish imkoniyatini yaratadi [19].

Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmi konsepsiyasida ushbu tadqiqotda "yashil moliyalashtirish mexanizmi"ning mazmuni, uning an'anaviy moliya mexanizmidan farqlari hamda unga yangi elementlarni kiritish zarurligi asoslanadi. O'rganilgan ilmiy va iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy mexanizmga turli ta'riflar berilgan bo'lib, ular ikki jihatdan farqlanadi.

Birinchi — moliyaviy mexanizmning shakllanishi va qo'llanish darajasi: milliy yoki makro daraja hamda korxona darajasi. Ikkinchi — moliyaviy mexanizm elementlarining yig'indisi sifatida uning qo'llanish usullari, vositalari, dastaklari, me'yoriy-huquqiy, axborot va uslubiy ta'minot tizimidir. Ushbu elementlar majmui an'anaviy tarzda moliyaviy mexanizmning asosini tashkil etadi.

Mazkur tadqiqot esa yuqoridagilardan tashqari, kengaytirilgan va takomillashtirilgan elementlar to'plamini taklif etadi. Ushbu elementlarning mazmuni ko'plab ilmiy manbalarda bayon etilgan bo'lsa-da, quyida ular asosida farqli jihatlarni o'z ichiga olgan yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmi keltiriladi (1-rasm).




1-rasm. An'anaviy moliya mexanizmi

Yuqorida aytib o'tilgan barcha an'anaviy elementlar "yashil" rangga, mos maqsad va tarkibga ega bo'ladi. Shu bilan birga, ayrim elementlar uchun oddiy "yashil" iborasini qo'shishning o'zi kifoya, bu ularni an'anaviy analoglardan (masalan, "yashil kredit", "yashil obligatsiyalar", "yashil investitsiyalar", "yashil loyihalar" va boshqalar) ajratib turadi. Biroq yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmi tarkibiga an'anaviy mexanizmga mavjud bo'lmagan yangi elementlar ham kiritilishi zarur, chunki ularsiz bu mexanizm "yashil iqtisodiyot" uchun zarur bo'lgan to'laqonli xarakterga ega bo'la olmaydi.

Moliyaviy vositalar — yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmining ajralmas qismi bo'lib, ular iqtisodiy natijalarni ekologik maqsadlarga muvofiqlashtirish uchun qo'llaniladigan harakatlar majmuini ifodalaydi. Ular davlat tomonidan tartibga solish choralari singari asosiy iqtisodiy vositalarni — valyuta kurslari, foiz stavkalari, narx belgilash strategiyasi va boshqalarni — o'z ichiga oladi.

Masalan, valyuta kurslari xalqaro savdo va investitsiya oqimlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi; ularni maqsadli tarzda boshqarish ekologik barqaror amaliyotlarni rag'batlantirishi yoki, aksincha, susaytirishi mumkin. Foiz stavkalari esa qarz olish xarajatlari va investitsiya qarorlariga bevosita ta'sir qiluvchi kuchli moliyaviy dastak bo'lib, iqtisodiy faoliyatning yashil tashabbuslarga yo'naltirilganligini belgilaydi. Narx belgilash mexanizmlari esa ishlab chiqarish, tovar va xizmatlarning haqiqiy ekologik xarajatlarini aks ettirishda muhim rol o'ynaydi hamda barqaror iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiladigan iste'mol modellarini shakllantirish uchun asos yaratadi (2-rasm).




2-rasm. Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmi



Shuningdek, moliyaviy vositalar moliya bozorlarida yashil investitsiyalarni va barqaror iqtisodiy rivojlanish tashabbuslarini rag'batlantirishga qaratilgan moliyaviy aktivlar hamda moliyaviy majburiyatlarni yuzaga keltiruvchi operatsiyalarni amalga oshiradi. Qimmatli qog'ozlar, valyutalar, kreditlar va boshqa vositalar ekologik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus ishlab chiqilgan.

Masalan, yashil obligatsiyalar qayta tiklanuvchi energiya infratuzilmasi yoki barqaror qishloq xo'jaligi tashabbuslari kabi atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan loyihalarni moliyalashtirishni ta'minlaydi [20]. Xuddi shuningdek, yashil jamg'armalar ham ekologik toza loyihalar yoki kompaniyalarni moliyalashtirish uchun turli manbalardan shakllantirilgan investitsiyalarni birlashtiradi (3-rasm).



3-rasm. Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmining moliyaviy manbalari

3-rasmda yashil moliyalashtirish bo'yicha "yashil" moliyalashtirish manbalari keltirilgan. Rasmga e'tibor qaratilsa, moliyaviy manbalar ikki toifaga bo'linadi: ichki va tashqi. Ichki manbalar — davlat sektori tashkilotlari, mamlakatda faoliyat yuritayotgan xususiy sektor, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modellari orqali shakllantiriladi. Tashqi manbalar esa xorijiy xususiy sektor hamda xalqaro hamkorlik sxemalari va dasturlari orqali jalb qilinadi.

Moliyalashtirish manbalarini izlash jarayoni yuqori xavfli, past uglerodli loyihalarga sarmoya kiritishga tayyor investorlarni topish, uzoq muddatli o'zini oqlash davriga ega loyihalarni aniqlash, ishtirokchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikning innovatsion moliyaviy sxemalarini ishlab chiqish, yangi moliyaviy mahsulotlarni yaratish va energiya o'tishi bilan bog'liq boshqa sohalarida resurslarni safarbar etish imkonini beradi. Bu yondashuv rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan Markaziy Osiyo uchun barqaror energetika o'tishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida yashil moliyalashtirish — bu jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti manfaatlarini ko'zlagan holda atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish maqsadida davlat byudjeti, xususiy sektor, xalqaro tashkilotlar mablag'lari hamda moliya bozorlari orqali yoki turli moliyaviy vositalar yordamida jalb qilinadigan moliyaviy resurslarni iqtisodiyot tarmoqlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan yashil tashabbusli faoliyat va loyihalarni moliyalashtirish jarayonini ifodalaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, bugungi sharoitda ekologik muammolar va iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq masalalarni e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bu muammolarning milliy hamda xalqaro miqyosdagi ahamiyati juda



yuqori bo'lib, ular deyarli butun insoniyatni qamrab oladi. Insoniyat jamiyatini barqaror rivojlantirish yo'lidagi eng muhim yo'nalishlardan biri — “yashil iqtisodiyot”ga o'tishdir.

Mazkur o'tishni amalga oshirishda “yashil” moliyaviy vositalardan foydalanish zarur. Biroq bunday global o'zgarishlar xalqaro hamda milliy miqyosda o'z yechimini talab etuvchi murakkab muammolar bilan birga kechadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni tegishli moliyalashtirishsiz amalga oshirishning imkoniyati yo'q. Shu sababli alohida “yashil moliyalashtirish tizimi”ni yaratish zarurati tug'iladi.

Bu borada “yashil iqtisodiyot”, “yashil moliya” va “yashil investitsiyalar”ning nazariy hamda metodologik asoslarini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. “Yashil” moliyaviy vositalar nafaqat ulardan foydalanish orqali iqtisodiy foyda olish, balki atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik va iqlim muammolarini hal etish uchun ham mo'ljallangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. www.verifiedmarketresearch.com/product/global-offshore-wind-market-size-and-forecast/.
2. www.wri.org/insights/ocean-based-climate-change-solutions.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2030 йилгача Ўзбекистон Республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтишига қаратилган ислохотлар самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида»ги 2022 йил 2 декабрдаги ПҚ-436-сон қарори. <https://lex.uz/uz/docs/6303230>
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 30 январдаги «Ўзбекистон — 2030» стратегиясини «Атроф-муҳитни асраш ва «яшил иқтисодиёт» йилида амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида»ги ПФ-16-сон фармони.
5. Архипова В.В. “Зелёные” финансы как средство для решения глобальных проблем. Экономический журнал ВШЭ. 2017. Т.21., №2, с. 314.
6. Sandor R. Good derivatives: a story of financial and environmental innovation. Hoboken: John Wiley & Sons; 2012. 640 p. <https://www.wiley.com/en-us/Good+Derivatives%>.
7. Khosla S., Eggink E., Gilbert A. Mapping of green finance delivered by IDFC members in 2012. Paris: International Development Finance Club; 2013. – 33 p.
8. Volz U., Böhnke J., Eidt V., Knierim L., Richert K., Roeber G.-M. Empirical analysis of supply of and demand for green finance in Indonesia. in: Financing the green transformation: how to make green finance work in Indonesia. Basingstoke: Palgrave Macmillan. 2015. -P. 56-94. DOI: 10.1057/9781137486127_4
9. Ghoul M.B. Green finance concept: Framework and consumerism. in: Ziolo M., Sergi B., eds. Financing sustainable development. Cham: Palgrave Macmillan. 2019. -P. 299-312. DOI: 10.1007/978-3-030-16522-2_12
10. Lindenberg N. Definition of green finance. Bonn: Deutsches Institut für Entwicklungspolitik; 2014. -p. 4. <https://www.cbd.int/financial/gcf/definitiongreenfinance.pdf>
11. Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х. Яшил иқтисодиёт: Дарслик. /А.В.Вахабов, Ш.Х.Хажибакиев ва бошқалар. –Т.: “Universitet”, 2020. - 6. 75.
12. Po'latova S.V. Yashil moliya tushunchasi va uning xalqaro moliya tizimidagi o'rni. Zamonaviy dunyoda ilm fan va texnologiya ilmiy-amaliy konferensiya to'plami materiallari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10073940>
13. Chi-Chuan Lee, Chien-Chiang Lee. How does green finance affect green total factor productivity? Evidence from China // Energy Economics. Vol. 107. 2022. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0140988322000469>
14. Буневич, К. Г., & Горбачева, Т. А. (2022). «Зелёные» тенденции в развитии мировой финансовой системы. Вестник Московского университета имени СЮ Витте. Серия 1: Экономика и управление, (1 (40)), 5260.
15. Zhang, D., Mohsin, M., Rasheed, A. K., Chang, Y., TaghizadehHesary, F. (2021). Public spending and green economic growth in BRI region: mediating role of green finance. Energy Policy, 153, 112256.
16. Х.С.Асатуллаев, Е.В.Красавина, Е.В.Шубенкова, Е.В.Новикова, Ю.В.Забайкин, Историко-экономическое развитие отраслевых финансов // Вопросы истории, 2022, 7(1), Ежемесячный журнал, стр. 223.
17. Иминов Т.К., Ваҳобов А.В., Тешабоев Т.З., Бўтабоев М.Т. (2019). «Зелёная экономика» как основа устойчивого развития. Монография. Т: «Алоқачи», 480.
18. Исаджанов А.А. “Яшил иқтисодиёт”: хусусиятлари ва ривожланиш омиллари. “Иқтисодиёт ва таълим” журнали. 2020 й. 1-сон. 12-18 б.
19. Асатуллаев Х.С., The State Fiscal Policy on Economic Activity: Theory and Practice // International Journal of Scientific & Engineering Research Volume 12, Issue 3, March-2021 ISSN 2229-5518.
20. Асатуллаев Х.С., Марданова Р.И., Қаландаров Р.А. Азизов О. Monetary Policy Of Developing Countries In Inflationary Processes, Turkish Journal of Computer and Mathematics Education Vol.12 No. 7 (2021), 2021- 2031
21. Хмыз О.В. Международный опыт выпуска «зеленых» облигаций // Экономика. Налоги. Право. - 2019. - Т. 12, № 5. - С. 132-141.
22. Асатуллаев Х.С., О.Астанакулов, Н.Саидахмедова, О.Эпрашев // 2019. Strategic Support for Accounting for the Investment Process in the Innovation Industry. Journal of Advanced Research in Law and Economics, Volume X, Fall, 6(44): 1877 – 1883. DOI: 10.14505/jarle.v10.6(44).30. Available from: <http://journals.aserspublishing.eu/jarle/index>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
